



“ODOB-AXLOQ QOIDALARI”

1-BO‘LIM. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (bundan buyon matnda universitet deb yuritiladi)ning odoq-axloq qoidolari (bundan buyon matnda “Qoidalar” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida"gi, "Ta‘lim to‘g‘risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida"gi va "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida"gi qonunlar, "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" Davlat dasturlari, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining tegishli buyruqlari, universitetning Ustavi, ichki tartib-qoidolari hamda umume‘tirof etilgan ma‘naviy va axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

“Qoidalar”ni ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasining ta‘limga oid qonun hujjatlarida fuqarolarga ta‘lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilashga hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta‘minlashga, ta‘lim oluvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma‘rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etishga qaratilganligi sababli universitetning asosiy vasifasi ta‘lim va tarbiya berishdan iborat ekanligi nazarda tutilgan.

1.2. “Qoidalar” universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng kuchga kiradi va unga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish Kengash qaroriga binoan amalga oshiriladi.

1.3. “Qoidalar” universitetning ma‘muriyati, professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari, tinglovchilari, magistr va doktorantlarining o‘zaro munosabatlaridagi odoq-axloq tamoyillari, rioya etishlari shart bo‘lgan xulq-atvor me‘yorlari va majburiyatlarini belgilab beradi.

1.4 “Qoidalar”ga rioya qilish universitet jamoa a‘zolarining barchasi uchun majburiydir.

1.5. Talabalikka va ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs “Qoidalar” bilan tanishib chiqishi hamda unga rioya qilishini o‘z zimmasiga olib imzo qoyishi shart.

1.6. Universitet jamoasi, davlat va nodavlat tashkilotlari, ta‘lim va ilmiy muassasalar, tadbirkorlik subyektlari, ommaviy axborot vositalari hamda talabalarining ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarda “Qoidalar”dagi ko‘rsatmalarga rioya etilishidan manfaatdordir.

2-BO‘LIM. MAQSAD VA VAZIFALAR

2.1. “Qoidalar”ning maqsadi universitetda sog‘lom ma‘naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro‘- e‘tiborini asrab-avaylash, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko‘maklashish, universitetning jamiyatdagi hamda ta‘lim tizimidagi nufuzini yanada oshirishdir.

2.2. “Qoidalar”ning asosiy vazifalari:

- yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z mas‘uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to‘g‘ri anglaydigan, insonparvar, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan hamda yuksak insoniy fazilatlariga ega bo‘lgan irodasi baquvvat, iymoni butun va vijdoni uyg‘oq mutaxassislarni tayyorlash;
- universitet jamoa a‘zolarining ma‘naviy immunitetini shakllantirish, saqlash va himoya qilish;
- yoshlar orasida odoq-axloqni buzishga, shu jumladan zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarning oldini olish, jumladan, yoshlarni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta‘sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga ko‘maklashishdan iborat.

3-BO‘LIM. JAMOA A‘ZOLARINING ODOB-AXLOQIGA OID UMUMIY QOIDALAR

3.1. Universitetda hamjihatlik, o‘zaro ishonch, hurmat, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilish hamda ahil-inoqlik jamoa a‘zolarining o‘zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir. Har bir jamoa a‘zosi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishi, ongli intizom tamoyillariga amal qilishi lozim.

3.2. Universitetda o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyili - bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini poymol qilmasligi lozim, jumladan, jamoa a'zosining so'z erkinligi unga birovga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalariga zid bo'lgan behayo so'zlardan foydalanish, e'tiqod erkinligi e'tirof etilgan milliy-an'anaviy shakllarga zid kiyimlarda universitetga kelish, kiyinish erkinligi ta'lim maskanida tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir qilish huquqini kafolatlamaydi va hokazo.

3.3. Universitetda jamoa a'zolarining pedagog (yoki bo'lajak pedagog) kasbiga mos holda kiyinishlari talab etiladi. Bunda o'qituvchi va murabbiylar talabalarga ibrat namunasini ko'rsatishlari shart.

Universitet talabalari, professor-o'qituvchilari, xodimlari, tinglovchilar, magistr va doktorantlarining o'z kasbiga mos bo'lgan belgilangan zamonaviy-rasmiy kiyimda bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Jamoa a'zolari universitetga "TDPUda professor-o'qituvchi, xodim va talabalarining kiyinish madaniyati to'g'risida"gi Nizom talablari asosida kiyinib kelishi lozim.

3.4. Jamoa a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda xalqimizning ma'naviy merosini avaylab asrash maqsadida jamoa a'zolari bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, behayo so'zlar ishlatishi, insonning turli jismoniy kamchiliklariga, ijtimoiy kelib chiqishi yoki mahalliy kelib chiqishiga ishora qiluvchi ijtimoiy mavqeiini kamsituvchi murojaat so'zlari va laqablar qo'llashi qat'iy taqiqlanadi.

Universitetda o'zaro "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

3.5. Universitet jamoa a'zolari turli tadbirlar (adabiy-badiiy kechalar, majlislar, tantanali yig'ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlar)da so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, tinchlik va tartib-intizomni saqlashi shart. Zarurat taqozo etsa, bir notiq o'z so'zini tugatib, boshqasi so'z boshlagunga qadar yuzaga keladigan uzilish vaqtida zaldan chiqib ketish mumkin.

3.6. Binolarga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, talabalar professor-o'qituvchilar va xodimlarni, erkaklar esa ayollarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

3.7. Binoga kirayotgan har bir kishi binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, talabalar uchun esa joriy etilgan ko'krak nishonini (beyjikni) ochiq holda ko'rsatishi va universitetda bo'lgan vaqtida doimo uni taqib yurishi shart.

3.8. Jamoa a'zolari universitet hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari kerak. Bir-biriga duch kelganda albatta salomlashishlari, bunda: talabalar professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlarga, erkaklar xotin-qizlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi. Bundan qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo'lib qo'l uzatganidan keyingina unga javoban qo'l uzatish mumkin.

3.9. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki OTMning ichki hayoti va muammolariga taalluqli masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

3.10. Kompyuterlarda universitetga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iy man etiladi.

3.11. O'quv mashg'ulotlariga va ishga hamda jamoa a'zolarining osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlarni (radiopriyomnik, televizor, magnitofon va boshqa ovoz kuchaytirish vositalaridan maqsadsiz foydalanish) sodir etish ta'qiqlanadi.

3.12. Universitet jamoa a'zolari dars mashg'ulotlari va ishga belgilangan kun tartibiga ko'ra o'z vaqtida kelishlari shart.

3.13. Universitetda har qanday huquqbuzarlik sodir etish taqiqlanadi, shu jumladan, tuhmat qilish, haqorat qilish, jamoa a'zosiga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati yetkazish, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish (spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, psixotrop vositalar va hokazo), ichkilikbozlik,

kashandalik, maishiy tinchlikka tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash qat'iy man etiladi.

4-BO'LIM. PROFESSOR-O'QITUVCHILAR VA TALABALARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'ZARO MUNOSABATLARI

4.1. Professor-o'qituvchilar va talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabatlari o'zaro hurmat va tushunish, xususan, "Ustoz-shogird" milliy an'analariga asoslanishi lozim.

4.2. Professor-o'qituvchi auditoriyaga kirganida barcha talabalar o'rinlaridan turib salomlashishlari lozim.

4.3. Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun taqiqlanadi.

4.4. Talaba o'zining nojo'ya harakatlari bilan dars mashg'ulotlariga halaqit bersa, professor-o'qituvchi yuzaga kelgan vaziyat haqida dekanatni xabardor qilib va uning ruxsati bilan bunday talabani mashg'ulotlardan chetlatishi mumkin.

4.5. Talabada professor-o'qituvchi bilan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, unda talaba quyidagi qoidalarni aniq bilishi shart:

- professor-o'qituvchi talaba bilan dars jadvaliga muvofiq mashg'ulotlarda, maslahat soatlarida, mustaqil ishlar, reyting nazoratini topshirishda yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtda shug'ullanishini;

- o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan professor-o'qituvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini aniq bilishi shart.

4.6. Talaba oldindan kelishilmagan holda professor-o'qituvchining huzuriga kelsa, umumiy yoki o'zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo'lsa, professor-o'qituvchidan hatto qisqa vaqt suhbatlashishni talab qilishga ham haqli emas.

4.7. Ayrim hollarda talabalar professor-o'qituvchini almashtirish iltimosi bilan murojaat qilishlari mumkin. Buning uchun jiddiy sabablar (qo'pollik, ta'magirlik, professor-o'qituvchining aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish, talabalarga ularning talab va ehtiyojlariga mos bilim bermaslik va ma'naviy-axloqiy qusurlarini isbotlovchi dalillar) ko'rsatilishi va u boyicha guruhning yagona fikri mavjud bo'lishi shart.

4.8. Professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida reyting nazoratini topshirishga doir ziddiyat kelib chiqqan hollarda, talaba reyting nazoratini maxsus komissiyaga topshirish uchun ruxsat berish iltimosi bilan kafedra mudiriga murojaat etishi mumkin. Bunda murojaat asoslangan bo'lishi shart. Bunday masalalar kafedra mudirining taqdimnomasiga binoan fakultet dekani tomonidan hal etiladi.

5-BO'LIM. PROFESSOR-O'QITUVCHI VA XODIMLARNING O'ZARO MUNOSABATLARI

5.1. Professor-o'qituvchi va xodimlarning o'zaro munosabatlarida - yagona jamoa, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga amal qilishi lozim.

5.2. Professor-o'qituvchilar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga nisbatan hurmatsizlik qilish, shaxsiyatiga tegish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, behayo so'zlar ishlatish, bir-birlari haqida noto'g'ri ma'lumotlar (tuhmat yoki bo'hton) tarqatish, g'iybat qilish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'iy man etiladi.

6-BO'LIM. TALABALARNING O'ZARO MUNOSABATLARI

6.1. Talabalarning o'zaro munosabatlarida – yagona jamoa, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga amal qilinishi lozim.

6.2. Talabalar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, behayo so'zlar ishlatish, mushtlashish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'iy man etiladi.

7-BO'LIM. PROFESSOR-O'QITUVCHI VA XODIMLARNING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI

- odob-axloq qoidalariga rioya qilishda talabalarga namuna bo'lish;
- universitetga erkak va ayollar "TDP"da professor-o'qituvchi, xodim va talabalarning kiyinish madaniyati to'g'risida"gi Nizom talablari asosida kiyinib kelishlari;
- universitet manfaatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyish;

- biror-bir noxush voqea yoki hodisa roy bersa, zudlik bilan u haqda ma'muriyatga xabar berish;
- universitet sha'ni va nufuziga dog' tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish;
- universitet to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;
- dars jarayonida talabalarga odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ'ib qilish;
- yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan ogoh etib borish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashish.
- fan o'qituvchilari tomonidan dars jarayonida universitetning ichki tartib-qoidalariga, jumladan kiyinish, mobil telefondan foydalanish madaniyatiga rioya qilmagan talabalar bilan tushuntirish ishlari olib borish, odobga chaqirishlari lozim. Qoidalarga rioya etmagan talabalarni mashg'ulotlardan chetlashtirish yoki tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet yoki universitet rahbariyatiga taklif kiritishlari kerak.

8-BO'LIM. TALABALARNING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI

a) universitet hududida:

- hududga kirishda talabalik guvohnomasini ko'rsatib kirish, keyin esa to universitet hududini tark etgunga qadar beyjikni taqib yurish;
- universitetga "TDPUda professor-o'qituvchi, ishchi – xodim va talabalarining kiyinish madaniyati to'g'risida"gi Nizom talablari asosida kiyinib kelish;
- hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat joylardagi chiqindi qutilari (urnalar)ga tashlash;
- ustoz, xodim va talabalar bilan duch kelganda salom berish;
- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda va boshqa joylarda (xiyobonlar, bozorlar, ibodat joylari va boshq.) sababsiz yurmaslik;
- universitet mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar) ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;
- kiyinish va o'zaro suhbat odoblariga rioya qilish;
- mutasaddilarning ruxsatisiz turli reklama vositalari va e'lonlarni osmaslik;
- maishiy tinchlikka rioya qilish;
- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuqoridagi holatlar haqida tegishli tashkilotlarga o'z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo'lishi alohida qayd etiladi.

b) auditoriyada:

- uyali aloqa vositalarini o'chirib qoyish;
- dars vaqtida gaplashmaslik;
- jihozlarga madaniy munosabatda bo'lish, parta va stullarga yozmaslik;
- qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;
- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

v) umumiy ovqatlanish joylarida:

- taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish;
- tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko'rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
- umumiy ovqatlanish shahobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish.

g) axborot resurs markazida:

- ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo'lish;
- kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;
- baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;

- qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

d) talabalar turar joylarida:

- talabalar turar joyiga soat 21:00ga qadar qaytib kelish, uyga ketishdan oldin yozma ravishda o'rnatilgan tartibda ruxsat olish;
- mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar yetkazmaslik;
- elektr-energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish;
- sanitariya va gigiyena xonalaridan foydalanish qoidalariga amal qilish;
- talabalar turar joyi "Nizomi" va "Ichki tartib qoidalari"ga qat'iy rioya qilish.

ye) sport majmualarida:

- sport majmuasiga xos bo'lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;
- mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

j) madaniyat saroyi va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish joylarida:

- o'rindiq va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;
- ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;
- uxlab o'tirmaslik, o'rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik.

Shuningdek,

- turli davralarda o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan universitet haqida yuksak ijobiy ta'assurot hosil qilishga intilish;
- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash;
- universitet manfaati, uning sha'ni va shonli an'analari, obro'si hamda nufuzi to'grisida qayg'urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

**9-BO'LIM. PROFESSOR-O'QITUVCHI VA TALABALAR
ODOB-AXLOQIDA MAN ETILADIGAN HOLATLAR**

Professor-o'qituvchiga quyidagilar qat'iy man etiladi:

- jamoa a'zolarining shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish,
- o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilish;
- jamoa a'zolari va boshqalar ustidan turli ig'vo, g'iybat va bo'htonlar uyushtirish;
- talabalar bilan o'z hamkasabalarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;
- talabalarni asossiz o'quv mashg'ulotlardan chiqarib yuborish;
- o'quv mashg'ulotlarida tijorat reklamasi o'tkazish;
- o'quv mashg'ulotlarida diniy tashviqot olib borish;
- o'quv mashg'ulotlariga mast, soch-soqol olinmagan va kiyinish tartibiga rioya qilmagan holda kelish;
- universitet hududida, binolarda ichish va chekish kabilar.

Talabaga quyidagilar qat'iy man etiladi:

- professor-o'qituvchilarga qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida asossiz gapirish;
- professor-o'qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;
- yolg'on gapirish, g'irromlik yoki professor-o'qituvchilarni chalg'itish bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlar qilish;
- xodimlar va o'z o'rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik qilish;
- yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartib-taomillarni bajarish vaqtida chetdan yordam olish, o'zgalarga yordam ko'rsatish;
- boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirish;
- mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish yoki kechikib kelish;
- mashg'ulotlar vaqtida professor-o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;
- boshqa talabaning sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish;

- moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ko'z-ko'z qilish.

10-BO'LIM. MA'MURIYAT, PROFESSOR-O'QITUVCHILAR VA XODIMLAR O'RTASIDAGI ODOB-AXLOQQA OID MUNOSABATLAR

10.1. Ma'muriyat, professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar: o'zaro hurmat, ahillik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik, g'amxo'rlik va adolat tamoyillariga asoslanadi.

10.2. Ma'muriyat, professor-o'qituvchilar va xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar boyicha hamkorlik qilishida bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o'tkazishiga yoki unga harakat qilishiga, shuningdek, adolat tamoyillariga va universitet manfaatlariga zid bo'lgan qarorlar tayyorlanishiga, qabul qilinishiga yo'l qoyilmaydi.

10.3. Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlar o'rtasidagi muammolarni ishchi tartibda hal etish tavsiya etiladi. Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlarning ish jarayonidagi turli muammolarni o'z vakolatlari doirasida, ma'muriyatni jalb etmagan holda hal etishlari ma'qullanadi.

10.4. Jamoada biror bir masala bilan ma'muriyatga murojaat qilish tartibi subordinatsiya tamoyili asosida tashkil etiladi.

10.5. Professor-o'qituvchi va xodimning universitetda ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

10.6. Ma'muriyat professor-o'qituvchilar va xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'idan, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek, hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha imtiyozlarni yaratib beradi.

11-BO'LIM. RAG'BATLANTIRISH VA CHORA KO'RISH TARTIBI

11.1. O'quv yili davomida "Qoidalar"ga to'liq rioya qilgan, universitetda yuksak ma'naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishiga va mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a'zolari fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari tavsiyasiga binoan universitet ichki tartib-qoidalariga muvofiq moddiy yoki ma'naviy rag'batlantiriladi.

11.2. Jamoa a'zolari ushbu "Qoidalar"ni buzganida, universitet ichki tartib- qoidalarining "Intizomiy ta'sir choralari" bo'limida keltirilgan holatlar bo'yicha choralar ko'riladi.

Shuningdek, jamoa a'zosining xulq-atvori ustidan jamoat nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur "Qoidalar"ga rioya etilmaganligi holatlari universitetdagi Kasaba uyushma qo'mitasi, "Yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar, Jamoatchilik va "Ota-onalar" Kengashlarida ham muhokama qilinishi va ularning qaroriga binoan jamoa a'zosining xulq-atvori to'g'risida u yashab turgan mahalla fuqarolar yig'iniga ma'lumot tariqasida yozma xabar yuborish amaliyoti ham joriy etilishi mumkin.

**Yoshlar bilan ishlash bo'yicha
prorektor**

**Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va iqtidorli
yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
Universitet xotin-qizlar qo'mitasi raisi
Universitet yuriskonsul'ti**

Qo'ysinov O.A.

Musayeva N.M.

Sobirova M.

Ibragimov A.

“TASDIQLANGAN”
Nizomiy nomidagi T D P U
Kengashining 2018 yil 27- sentyabr
2- sonli yig‘ilishi 2/3.5- qarori asosida
Kengash raisi, rektor
Sh.S.Sharipov
2018 yil

**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida
professor-o‘qituvchi, xodim va talabalarning kiyinish madaniyati to‘g‘risida**

NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Mazkur Nizomning maqsadi - universitetda professor-o‘qituvchi, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari, xodimlar (kabinet mudirlari, laborantlar, kotibalar, bo‘lim xodimlari) hamda kunduzgi, sirtqi, kechki va maxsus sirtqi bo‘limlari talabalari uchun tartibli kiyinish meyorlarini belgilash, universitetdagi sog‘lom ma‘naviy, ijtimoiy-psixologik muhit barqarorligini ta‘minlash, kasbga nisbatan va o‘zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlashdan iborat.
- 1.2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 29-avgustdagi “Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni”, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda TDPU ning 2018- yil 27 – sentyabrda universitet Kengashida qabul qilingan “Odob-axloq qoidalariga”ga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.3. Ushbu Nizomning talablari barcha professor-o‘qituvchi, xodim (kabinet mudirlari, laborantlar, kotibalar, bo‘lim xodimlari) universitet jamoasi hamda talabalar uchun majburiy hisoblanadi.
- 1.4. Talabalikka va ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs Nizomda ko‘rsatilgan “Qoidalar” bilan tanishib chiqishi hamda unga rioya qilishni o‘z zimmasiga olib imzo qo‘yishi shart.

II. TDPU PROFESSOR-O‘QITUVCHI, XODIM VA TALABALARINING KIYINISHIGA QOYILADIGAN TALABLAR

- 2.1. Dunyo miqyosida qabul qilingan xizmat protokoli qoidalariga muvofiq jiddiy, ishchan va didli, ziyoli shaxs qiyofasini shakllantirish maqsadida korporativ kiyinish uslubi talabalariga amal qilinadi.
- 2.2. Universitetga orasta bo‘lib, unga monand kiyimda kelish talab etiladi.
- 2.3. Tanaga bodiard uslubda turli suratlar chizdirish, tatuaj va pirsinglar tushirish odob-axloq qoidalariga zid hisoblanadi hamda universitetga bu holda kelish ta‘qiqlanadi.

III. TDPU PROFESSOR-O‘QITUVCHI, XODIM VA TALABALARINING KIYINISH QOIDALARI

3.1. Ayol professor-o‘qituvchi, xodimlar uchun:

3.1.1. Ustki kiyimning turlari - bichimi ortiqcha bezaklardan xoli, klassik shakldagi kostyum, yubka, bluzka va kuylakdan iborat.

3.1.2. Qora, ko‘k, qaymoq rang, kul rang, jigar rang bir-biriga yaqin sidirg‘a ranglardagi odmi, sipo va rasmiy bichimdagi kiyim (kostyum, bluzka, kuylak, jaket, yubka, sarafan) larda, bosh kiyimsiz (qish mavsumi: noyabr-fevral oylari bundan istisno) kelishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Qish mavsumida (noyabr-fevral oylarida) istisno tariqasida klassik uslubdagi shim (rangi qora, to‘q ko‘k, badanga yopishmay turadigan, juda keng bo‘lmagan) kiyishlari mumkin. Yubkaning uzunligi tizzadan yuqori bo‘lmasligi kerak.

3.1.3. Aksessuarlar (sumka, ko‘zoynak va bezaklar) ham korporativ uslubga mos holda tanlanishi, ortiqcha bezaklardan xoli bo‘lishi, zargarlik taqinchoqlari (zirak, uzuk, munchoq va boshqalar) ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan, nozik, nafis va sipo shaklda did bilan taqilishi lozim.

3.1.4. Sochlar orasta yig‘ilgan, o‘rilgan yoki turmaklangan, ortiqcha aksessuar va ro‘mollardan xoli bo‘lishi kerak.

3.2. Erkak professor-o‘qituvchi, xodim va talaba yigitlar uchun:

3.2.1. Ustki kiyimning turlari - bichimi klassik shakldagi kostyum, shim, ko‘ylak hamda galstukdan iborat.

3.2.2. Kostyum va shimlar qora, kulrang, ko‘k ranglardagi sidirg‘a yoki ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan chiziqli matolardan, ko‘ylaklar esa ochiq ranglarda (oq, kulrang, ko‘k) bo‘lishi lozim.

3.2.3. Galstukning kengligi o'rtacha, uzunligi kamargacha bo'lib, rangi kostyum va ko'ylakka mos tanlanishi kerak.

3.2.4. Talaba yigitlar talabga mos, ruchka, qalam, kitob, daftarlar solib yurish mumkin bo'lgan, rangi ustki kiyimga yarashimli qora, kulrang, jigar rangdagi sumka-portfellar tutishlari lozim.

3.3. Talaba va kurs tinglovchilari (ayol va qiz) uchun:

3.3.1 Ustki kiyimning turlari – bichimi ortiqcha bezaklardan xoli, klassik shakldagi kostyum, bluzka va yupkadan iborat. Yubkaning uzunligi tizzadan yuqori bo'lmasligi kerak.

3.3.2. Qora, ko'k ranglardagi odmi, sipo va rasmiy bichimdagi kiyim (kostyum, jaket, yubka, sarafan) larda kelishlari kerak. Qish mavsumida (noyabr-fevral oylarida) istisno tariqasida klassik uslubdagi shim (rangi qora, to'q ko'k, badanga yopishmay turadigan, juda keng bo'lmagan) kiyishlari mumkin.

3.3.3. Aksessuarlar (sumka, ko'zoynak va bezaklar) ham odmi uslubga mos holda tanlanishi, ortiqcha bezaklardan xoli bo'lishi, zargarlik taqinchoqlari (zirak, uzuk, munchoq va boshqalar) ko'zga yaqqol tashlanmaydigan, nozik, nafis va sipo shaklda did bilan taqilishi lozim.

3.3.4. Sochlar orasta yig'ilgan yoki turmaklangan, ortiqcha aksessuarlardan xoli bo'lishi kerak.

IV. TDPU PROFESSOR-O'QITUVCHI, XODIM VA TALABALARINING KIYINISHIDA MAN QILINADIGAN HOLATLAR

4.1. Ayol professor-o'qituvchi, xodimlar uchun:

4.1.1. Uzunligi tizzadan kalta bo'lgan, harir, shaffof va yaltiroq matolardan tikilgan, bichimi tor, badanga yopishib turadigan, ko'krak, qorin, yelka qismi ochiq bluzka va ko'ylaklar kiyish;

4.1.2. Bezak sifatida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvlar, turli reklama ma'lumotlari, davlat ramzlari, zo'ravonlik, fahsh elementlarini targ'ib qiluvchi rasmlar va yozuvlar aks etgan, rusum sifatida "yirtilgan", "titilgan" va jinsi matosidan tikilgan kiyimlarda yurish;

4.1.3. Universitet hududida sport kiyimlari, kalta shim va krossovkalarda yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so'ng TTJ binosi, sport maydonchalari va hasharlardan tashqari);

4.1.4. Hijob va boshqa diniy kiyim-boshlar, jumladan turban, ro'mol, ro'mol ostidan kiyiladigan turli shabkalarda yurish (yaqin insonlari vafot etgan holatlar bundan mustisno);

4.1.5. O'quv anjomlarni ro'zg'or, bozor-o'char uchun mo'ljallangan paket-xaltalarda olib yurish;

4.1.6. Quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar taqib yurish.

4.1.7. Yorqin pardoz (makiyaj) qilishiga va odamlar diqqatini tortadigan, xususan, tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak, qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan, haddan ziyod tor, uzun va keng, gulli va yorqin ranglardagi (qizil yashil sariq) kiyimlarda (qish mavsumida istisno tariqasida klassik uslubdagi shim), hamda sport kiyimi va poyabzalida kelishi ta'qiqlanadi.

4.2. Erkak professor-o'qituvchi, xodim va talaba yigitlar uchun:

4.2.1. Bichimi tor, yaltiroq, badanga yopishib turadigan hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvlar, turli reklama ma'lumotlari, davlat ramzlari, zo'ravonlik, fahsh elementlarini targ'ib qiluvchi rasmlar va yozuvlar aks etgan, rusum sifatida "yirtilgan", "titilgan" va jinsi matosidan tikilgan kiyimlarda yurish;

4.2.2. Universitet hududida sport kiyimlari, kalta shim va krossovkalarda yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so'ng TTJ binosi, sport maydonchalari va hasharlardan tashqari);

4.2.3. O'quv anjomlarni ro'zg'or, bozor-o'char uchun mo'ljallangan paket-xaltalarda olib yurish;

4.2.4. Soch-soqollarni o'stirib yurish;

4.2.5. Tatirovkalarni ko'zga ko'rinarli tarzda namoyishkorona ko'rsatib yurish;

4.2.6. Bo'yin taqinchoqlari yoki turli metall buyumlarini osib yurish.

4.3. Talaba va kurs tinglovchilari (ayol va qiz) uchun:

4.3.1. Yorqin pardoz (makiyaj) qilish va har qanday bosh kiyimi, ro'mol o'rashga (yaqin insonlari vafot etgan holatlar, qish mavsumida universitet hududida auditoriyagacha bo'lgan masofada bundan mustasno), turli turban va shapkalar kiyishga:

4.3.2. Odamlar diqqatini tortadigan, xususan, tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor, uzun va keng kiyimlarda (qish mavsumi: noyabr-fevral oylarida istisno tariqasida klassik uslubdagi shim), shuningdek,

quloqchin(naushnik)lar, metall zanjirlar va boshqa taqinchoqlar, pirsingda yoki turli xil tatuirovkalarda, e'tirof etilgan milliy-an'anaviy shakllarga zid kiyimlarda hamda sport kiyimi va poyabzalida kelishi taqiqlanadi.

**Yoshlar bilan ishlash bo'yicha
prorektor**

**Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va iqtidorli
yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
Universitet xotin-qizlar qo'mitasi raisi
Universitet yuriskonsul'ti**



Qo'ysinov O.A.

Musayeva N.M.

**Sobirova M.
Ibragimov A.**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM MUASSASALARIDA MOBIL
TELEFONLARDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 21-son, 229-modda)

Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini yanada oshirishni ta’minlash, har tomonlama rivojlangan va barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi manfaatdor vazirliklar va idoralar, nodavlat ta’lim muassasalari bilan birgalikda:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Nizom talablarining izchil bajarilishini;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Nizomning maqsadi va vazifalari aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida keng tushuntirilishini ta’minlasinlar.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish
tartibi to‘g‘risida**

N I Z O M

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom, idoraviy mansubligidan qat’iy nazar, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda ta’lim muassasasi deb ataladi) mobil telefonlardan (keyingi o‘rinlarda telefon deb ataladi) foydalanish tartibini belgilaydi hamda sifatli ta’lim olish va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishda, davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘quvchi yoshlarning sog‘lig‘ini saqlashda xavf-xatarlarni kamaytirishda o‘quvchilar va talabalarning (keyingi o‘rinlarda ta’lim oluvchilar deb ataladi) konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

1.2. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samaradorligiga erishish va o‘quvchi yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish ushbu Nizomning maqsadlari hisoblanadi.

1.3. Ushbu Nizom davlat va nodavlat ta’lim muassasalariga tatbiq etiladi hamda ta’lim oluvchilarga, shuningdek, ta’lim muassasalarining barcha toifalardagi xodimlariga nisbatan amal qiladi.

1.4. Telefonning saqlanishi uchun faqat uning egasi (ota-onalar) javob beradilar.

1.5. Ushbu Nizomning maqsadlariga muvofiq uni ishlab chiqish quyidagi vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan:

a) boy intellektual meros asosida yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy mustaqillik g‘oyalarni hurmat qilish va ularga sadoqat ruhida tarbiyalash;

b) o‘quv jarayonida, shu jumladan ta’lim oluvchilar tomonidan telefonlardan foydalanish bilan bog‘liq quyidagi salbiy hodisalarning oldini olish va bartaraf etish:

o‘quv materiallarini ulardan shpargalkalar sifatida foydalanish uchun, shuningdek, mashg‘ulotlar vaqtida ta’lim oluvchilar foydalanadigan turli o‘yinlarni yozib olish va telefon xotirasida saqlash;

yoshlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy xislatlarni buzuvchi, zo‘ravonlik, shafqatsizlik va pornografik, shuningdek, reaksion-sektant, soxta diniy mafkurani targ‘ib qiluvchi, atrofdagilarni salbiy harakatlarga undovchi materiallardan iborat bo‘lgan, ko‘rgazma, fon sifatida xizmat qiluvchi rasmlar, audio-videoyozuvlar, chizma va suratli tasvirlar, ovoqli videoroliklarni namoyish etish, tarqatish, qo‘llanish;

v) ta’lim muassasalarining ichki tartib-qoidalariga rioya etishni ta’minlash uchun ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar tomonidan telefonlardan foydalanishni tartibga solish.

II. TA'LIM MUASSASALARI HUDUDI VA XONALARIDA TELEFONLARDAN FOYDALANISH TARTIBI

2.1. Ta'lim muassasasiga kirib kelishda har bir ta'lim oluvchi, xodim, keluvchi va boshqa shaxslar o'z telefoni abonentining chaqiruv ovozi to'liq o'chirib qoyishi (telefonni «ovozsiz» rejimga o'tkazishi) shart.

2.2. Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilar) boshlanishidan oldin ta'lim oluvchilar:

telefonini o'chirib qo'yishi;

telefonini portfeli, sumkasi va shu kabilarga solib qoyishi shart.

2.3. Ta'lim oluvchilarga quyidagilar qat'iy taqiqlanadi:

a) telefonini bo'yniga osib olish, ko'krak cho'ntaklarida, shim, yubkalari cho'ntaklarida va shu kabilarda saqlash;

b) telefon akkumulyatorini zaryadlash uchun ta'lim muassasasi elektr tarmoqlariga ulash;

v) telefoni yordamida:

atrofdagilarga zo'ravonlik, shafqatsizlik, pornografiyani targ'ib qiluvchi video va suratlarni namoyish qilish;

ta'lim muassasasining nufuziga, shu jumladan, zo'ravonlik va vandalizm holatlarini suratga olish va keyinchalik ularni atrofdagilarga namoyish etish yo'li bilan zarar yetkazish;

g) o'quv mashg'ulotlari vaqtida:

telefon orqali so'zlashish hamda SMS (MMS) va boshqa turdagi xabarlarni jo'natish;

telefonni stol ustiga qo'yish;

musiqa, shu jumladan naushniklar orqali tinglash;

surat va video tasvirlarni ko'rsatishda telefondan foydalanish (oyinlar bilan shug'ullanish), tasvir (matn, rasm, videoyozuv va fotosuratlar) ko'rish, diktofon, kalkulyator, kalendar, bloknot, yon daftarcha kabilar sifatida foydalanish;

suratga olish va video tasvirga tushirish;

telefon (GPRS, Bluetooth, Internet va shu kabilar) orqali boshqa xizmatlardan foydalanish.

2.4. Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarga mashg'ulotlar va tadbirlar oralig'ida faqat asosli va kechiktirib bo'lmaydigan zarur holatlarda ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchilar), yaqin qarindoshlari, ta'lim muassasalarining rahbarlari yoki xodimlari bilan zudlik bilan bog'lanish maqsadida telefonlardan foydalanishga (qo'ng'iroq qilishga, SMS, MMS, GPRS jo'natishga, Bluetooth, Internet va shu kabilar xizmatidan foydalanishga) ruxsat etiladi.

2.5. Mashg'ulotlar va turli tadbirlar oralig'ida telefon orqali so'zlashish uchun xonadan yo'lakka yoki foyega chiqish, past ovozda va qisqa muloqot qilish zarur.

2.6. Favqulodda vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda ta'lim muassasalarida telefondan foydalanish cheklanmaydi.

2.7. Ta'lim muassasasining o'qituvchilari va boshqa xodimlari:

O'quv mashg'ulotlari vaqtida telefondan foydalanish huquqiga ega emas;

darsdan tashhari vaqtida ta'lim oluvchilar ishtirokida telefondan foydalanishni imkoni boricha cheklashlari shart.

III. NIZOM TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

3.1. Ushbu Nizom talablarini buzgan ta'lim oluvchilarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llanadi:

ogohlantirish;

ularning kundalik daftoriga yozib qoyish;

ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) xabardor qilish yoki tushuntirish ishlari o'tkazish uchun ta'lim muassasasiga chaqirish.

Ushbu Nizom talablarini buzgan talabalarga nisbatan oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarga muvofiq choralar ko'riladi.

3.2. Ushbu Nizom talablari buzilgan taqdirda ta'lim muassasasining har qanday pedagog xodimi ta'lim oluvchidan telefonni olib qoyish, ushbu Nizomni buzganlik holati to'g'risida bildirishnoma

rasmiylashtirish va uni telefon bilan birga ta'lim muassasasining (fakultetning) direktoriga (dekaniga) yoki direktor (dekan) o'rinbosariga, keyinchalik uni ota-onalarga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga, oliy ta'lim muassasalarida esa - kuratorga) berish, ushbu Nizom talablari buzilganligi holatlari to'g'risida ogohlantirish berish huquqiga ega.

3.3. Ushbu Nizom talablarining har qanday buzilishi ta'lim muassasasida (fakultetda) tuziladigan direktor (dekan) rahbarligidagi komissiya tomonidan, sinf rahbari (kurator), ta'lim oluvchining ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ishtirokida, shuningdek, ota-onalar (talabalar) majlisida muhokama qilinadi.

3.4. Ushbu Nizom talablariga rioya etilishini ta'lim muassasasining direktori (fakultet dekani) va uning o'rinbosarlari nazorat qiladi.

IV. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

4.1. Ta'lim muassasasi ta'lim oluvchilarga tegishli bo'lgan telefonlarning saqlanishi uchun javob bermaydi, ushbu Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan holatlarda telefonlarning olib qoyilishi hollari bundan mustasno.

4.2. Ushbu Nizom talablari har yili imzo qoydirilgan holda har bir ta'lim oluvchiga va uning ota-onasiga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga), oliy ta'lim muassasalarida esa tegishli ravishda har bir talabaga yetkaziladi.
